

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar-iyun*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-iyul holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 591** tani tashkil etib, (o'sish sur'ati **91,7 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **12 550** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **12 198,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2 316,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **96,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 882,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 215,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,4 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	12 198,8	104,7	2 316,4	96,1	9 882,4	107,0
Samarqand sh.	4 381,1	106,0	1 940,7	91,8	2 440,4	120,9
Kattaqo'rg'on sh.	734,9	100,9	0,783	90,0	734,1	100,9
tumanlar:						
Oqdaryo	296,2	102,2	6,195	194,5	290,0	101,1
Bulung'ur	508,9	106,6	16,125	119,2	492,8	106,3
Jomboy	467,2	102,6	47,668	87,1	419,6	104,7
Ishtixon	405,6	105,9	3,428	109,1	402,1	105,9
Kattaqo'rg'on	676,0	105,2	26,464	5,4 m.	649,5	101,9
Qo'shrabot	153,3	101,8	2,695	95,8	150,7	101,9
Narpay	466,8	99,7	3,703	84,1	463,1	99,8
Payariq	446,8	103,4	3,682	87,0	443,1	103,5
Pastdarg'om	572,5	100,9	20,041	118,5	552,4	100,4
Paxtachi	297,2	102,3	3,446	92,1	293,8	102,5
Samarqand	919,7	104,8	210,211	137,5	709,5	97,9
Nurobod	193,1	99,7	2,569	100,8	190,5	99,6
Urgut	1 285,4	107,8	20,082	93,4	1 265,3	108,0
Toyloq	394,1	108,4	8,603	115,4	385,5	108,3

2023-yilning yanvar-iyun oylarida 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Samarqand shahrida (**106,0** %), Bulung'ur (**106,6** %), Ishtixon (105,9 %), Kattaqo'rg'on (**105,2** %), Toyloq (**108,4** %) va Upgut (**107,8**%) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
yanvar-iyun, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **108,3 %** ni yoki **10 786,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz

2022-yil, 2023-yil yanvar-iyun oylari



2023-yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- | | | |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo |
| ■ Bulung'ur | ■ Jomboy | ■ Ishtixon |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot | ■ Narpay |
| ■ Payariq | ■ Paxtachi | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om | ■ Nurobod | ■ Urgut |
| ■ Toyloq | | |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **35,9 %** bilan **4 381,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,3 %** bilan **153,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Toyloq (**108,4 %**), Bulung'ur (**106,6 %**), Urgut (**107,8 %**), Kattaqo'rg'on (**105,2 %**) va Ishtixon (**105,9 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 882,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,0** % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,0** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **96,1** % ni va **2 316,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,2 %**), Ishtixon (**99,2 %**), Narpay (**99,2 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **19,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**44,3 %**) va Samarqand (**22,9 %**), Jomboy (**10,2 %**), Pastdarg'om (**3,5 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foiz
Samarqand viloyati	2 947,5	102,5
Samarqand sh.	7 600,8	103,8
Kattaqo'rg'on sh.	7 817,6	99,0
tumanlar:		
Oqdaryo	1 741,6	99,7
Bulung'ur	2 563,7	104,4
Jomboy	2 513,4	100,1
Ishtixon	1 494,9	103,7
Kattaqo'rg'on	2 338,2	103,2
Qo'shrabot	1 096,9	99,8
Narpay	2 082,1	97,8
Payariq	1 665,2	100,8
Pastdarg'om	1 520,1	98,9
Paxtachi	1 974,7	100,9
Samarqand	3 422,9	102,5
Nurobod	1 207,0	97,7
Urgut	2 343,5	105,2
Toyloq	1 817,6	105,9

2023-yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 947,5** ming. so'mni (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,5** % ni) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**7 600,8** ming. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**7 817,6** ming. so'm) va Samarqand (**3 422,9** ming. so'm), Bulung'ur (**2 563,7** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 215,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,4** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **543,2** mlrd. so'mni (**196,8** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **672,3** mlrd. so'mni (**83,5** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'ati, foiz



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.











UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	1 215,5	112,4	543,2	196,8	672,3	83,5
Samarqand sh.	99,8	162,7	94,4	159,2	5,4	2,7 m.
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	154,7	67,5	74,4	4,9 m.	80,3	37,5
Oqdaryo	68,8	100,3	6,3	73,3	62,4	104,1
Bulung'ur	102,6	114,5	27,4	110,7	75,2	116,0
Jomboy	137,3	182,2	98,6	3,2 m.	38,8	87,8
Ishtixon	92,1	141,3	43,4	7,0 m.	48,7	82,5
Kattaqo'rg'on	78,6	98,9	24,3	124,2	54,3	90,6
Qo'shrabot	45,8	98,0	15,6	2,4 m.	30,3	75,2
Narpay	12,7	91,2	8,9	76,0	3,9	168,5
Payariq	88,0	109,1	37,4	2,1 m.	50,6	80,6
Pastdarg'om	45,1	95,4	3,7	39,9	41,3	109,0
Paxtachi	48,1	114,8	18,9	144,4	29,2	101,4
Samarqand	40,9	126,3	3,4	164,7	37,5	123,7
Nurobod	39,3	83,7	16,2	86,7	23,1	81,7
Urgut	74,6	147,2	44,8	2,5 m.	29,7	91,1
Toyloq	87,1	166,4	25,5	183,2	61,6	160,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **543,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**242,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	242,4
	Non va non mahsulotlari	84,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	59,6
	Tovuq go'shti	42,7
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	31,9
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	14,8
	Tuxum	18,8
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	10,1
	Ziravorlar	17,0
	Tuzlamalar	14,9
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	2,3
	Nooziq-ovqat tovarlari	4,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **672,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **546,9** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **86,1** mlrd. so‘mni, otlar **35,7** mlrd. so‘mni, parrandalar **3,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	312,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	147,8
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	87,0
	Qo‘ylar	69,7
	Otlar	35,7
	Echkilar	16,4
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,1
	Tovuqlar	2,5
	Quyونlar	0,01
	Qushlar	0,004

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 998** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **78,6 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 992** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **528,3** mlrd. so'mni (**116,9 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **16,9 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **67,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	528,3	116,9	169,6	156,3	358,7	104,4
Samarqand sh.	246,6	102,1	42,8	95,6	203,8	103,6
Kattaqo'rg'on sh.	10,9	102,1	-	-	10,9	102,1
tumanlar:						
Oqdaryo	2,0	99,1	-	-	2,0	99,1
Bulung'ur	11,7	113,9	5,7	134,5	6,0	99,3
Jomboy	8,9	112,3	-	-	8,9	112,3
Ishtixon	2,8	102,4	-	-	2,8	102,4
Kattaqo'rg'on	6,5	106,9	-	-	6,5	106,9
Qo'shrabot	4,5	105,9	-	-	4,5	105,9
Narpay	5,4	99,4	-	-	5,4	99,4
Payariq	6,1	111,1	-	-	6,1	111,1
Pastdarg'om	42,6	99,9	9,1	85,6	33,5	104,6
Paxtachi	5,6	100,6	-	-	5,6	100,6
Samarqand	25,5	100,9	-	-	25,5	100,9
Nurobod	4,8	103,2	-	-	4,8	103,2
Urgut	15,2	115,6	-	-	15,2	115,6
Toyloq	129,2	2 m.	112,0	2,3 m.	17,2	111,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-iyun oylariga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 204,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **97,3** % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **177,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **82,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi **1 027,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,4** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foiz
Samarqand viloyati	1 204,8	100,0
Samarqand sh.	892,0	74,0
Kattaqo'rg'on sh.	9,2	0,7
tumanlar:		
Oqdaryo	5,2	0,4
Bulung'ur	9,8	0,8
Jomboy	0,8	0,1
Ishtixon	8,3	0,7
Kattaqo'rg'on	8,4	0,7
Qo'shrabot	0,6	0,1
Narpay	8,3	0,7
Payariq	1,1	0,1
Pastdarg'om	0,2	0,02
Paxtachi	5,6	0,5
Samarqand	28,9	2,4
Nurobod	13,9	1,1
Urgut	0,7	0,1
Toyloq	211,8	17,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**892,0** mlrd. so'm), Toyloq (**211,8** mlrd. so'm) va Samarqand (**28,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 093,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **9,9 %** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 582,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **84,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **58,8 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (2,1 m.), Pstdarg'om (140,1 %), Bulung'ur (117,6 %), Toyloq (136,2 %) va Samarqand (127,9 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 830** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **103,1 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **28** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 802** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	6 093,7	109,9	2 511,4	190,0	3 582,3	84,9
Samarqand sh.	4 067,2	114,9	2 082,3	2,1 m.	1 984,9	77,3
Kattaqo'rg'on sh.	169,9	106,2	0,2	5,6	169,6	108,6
tumanlar:						
Oqdaryo	45,5	105,0	-	-	45,5	105,0
Bulung'ur	158,3	102,0	132,5	117,6	25,8	60,6
Jomboy	81,8	78,6	15,5	69,1	66,3	81,2
Ishtixon	47,2	96,1	-	-	47,2	96,1
Kattaqo'rg'on	101,4	93,4	-	-	101,4	94,0
Qo'shrabot	15,9	86,0	0,1	75,3	15,8	86,1
Narpay	67,2	88,3	0,3	70,6	66,9	88,4
Payariq	38,0	105,3	-	-	38,0	105,3
Pstdarg'om	238,3	97,8	84,5	140,1	153,9	83,9
Paxtachi	12,1	89,1	0,2	25,1	11,9	93,0
Samarqand	432,3	98,6	114,8	127,9	317,5	92,2
Nurobod	37,1	90,3	0,1	53,2	37,0	90,4
Urgut	272,3	95,0	-	-	272,3	95,0
Toyloq	309,2	132,2	80,9	136,2	228,3	130,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Teln. 66-235-65-80**